Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: : 811.512.133'373.47:395.84(=512.133)
ORCID: 0000-0002-5603-5240

XAYRLASHUV NUTQIY AKTINING KOGNOPRAGMATIV YONDASHUV ASOSIDA TAHLILI

Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna
Buxoro davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail*: n.n.hamroeva@buxdu.uz*

Annotatsiya. Bugungi zamonaviy pragmalingvistik tadqiqotarda nutqiy akt va nutqiy janrlarga katta e'tibor berilmoqda. Natijada fatika va uning ko'rinishlariga ham urg'u berish zarurati paydo bo'ldi. Fatik muloqotni yakunlash – xayrlashuv nutqiy akti – nutq odobining alohida kommunikativ darajasidir. Nutq aktining murakkab, ammo qiziqarli va samarali elementlaridan biri bo'lgan xayrlashuv sof pragmatik xarakterdaligi bilan ahamiyatlidir. Antroposentrik yo'nalishdagi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda dialogik diskurs, fatik muloqot va tilning fatik funksiyasi, salomlashish, xayrlashuv kabi masalalarga oid yangicha yondashuvlarni yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Fatikaning muloqotni yakunlash, ya'ni xayrlashuv turi mohiyatan urfiy-odatiy (etik) bo'lib, muloqotni yakunlash, diskursning oxirlashiga xizmat qiladi. O'zbek suhbat odobi bo'yicha xayrlashuv akti diskurs subyekti va obyekti suhbatidan, ya'ni muloqot mazmnunidan kelib chiqib, bir-birlariga ezgu tilaklarini, qayta muloqotga tilakdoshliklarini ifodalaydi. Ushbu maqolada o'zbek fatik muloqotida muloqotni yakunlash (xayrlashish)ning nazariy va amaliy asoslarini tahlil etish maqsad qilib olindi va ratsional tipologik, qiyosiy-chog'ishtirma, substansial metodlardan foydalanildi. Natijada xayrlashish etiketining etnomadaniy jihatlari, "Xayrlashuv" vaziyatida muloqot strategiyasi, taktikasi kabi masalalar tahlil etildi. Muloqotni yakunlashning kognopragmativ yondashuv asosida tahlili o'zbek adabiyoti namunalaridan olingan misollar vositasida keltirildi. Nutqiy muloqotning situativ pragmatik sistemani tashkil etishini asoslashga, bu sistemaning bosqichlari va uning tarkibiy qismlarining o'zaro munosabatlarini ochishga harakat qilindi, ushbu qonuniyatlarning nutqiy muloqot intihosida (xayrlashuv bosqichida) aks etishini o'zbekona muloqot va uning badiiy adabiyotdagi namunalari misolida ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: nutqiy janr, diskurs, fatik muloqot, muloqotni yakunlash, nutqiy etiket, verbal vositalar, noverbal vositalar, iltifot, etnomadaniy jihatlar.

АНАЛИЗ РЕЧЕВОГО АКТА ПРОЩАНИЯ НА ОСНОВЕ КОГНОПРАМГАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. Современные исследователи-прагмалингвисты уделяют большое внимание речевым актам и речевым жанрам. В результате возникла необходимость подчеркнуть фатику и ее проявления. Завершение фатического общения - речевой акт прощания - представляет собой особый коммуникативный уровень речевого этикета. Прощание, являющееся одним из сложных, но интересных и эффективных элементов речевого акта, знаменательно своим чисто прагматическим характером. В современных лингвистических исследованиях антропоцентрического направления особое внимание уделяется освещению новых подходов к таким вопросам, как диалогическое слово,

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

фатическая коммуникация и фатическая функция языка, приветствие, прощание. Фатика – это своего рода прощание, которое по сути является традиционным (этическим) и служит для завершения разговора и завершения дискурса. Согласно узбекскому разговорному этикету, акт прощания выражает добрые пожелания друг другу, пожелания повторного общения, основанные на беседе между субъектом и объектом беседы, то есть на содержании беседы. В статье поставлена задача проанализировать теоретические и практические основы окончания диалога (прощания) в обекфатическом общении, при этом использованы рациональные типологические, сравнительно-сопоставительный и содержательный методы. В результате были проанализированы такие вопросы, как этнокультурные аспекты этикета прощания, стратегия и тактика общения в ситуации «Прощания». Анализ завершения диалога на основе когнопрагматического подхода был представлен на примерах из узбекской литературы. Предпринята попытка обосновать формирование ситуативно-прагматической системы речевого общения, раскрыть этапы этой системы и взаимосвязи ее компонентов.

Ключевые слова: речевой жанр, дискурс, фатическая коммуникация, завершение диалога, речевой этикет, вербальные средства, невербальные средства, комплимент, этнокультурные аспекты.

ANALYSIS OF THE SPEECH ACT OF FAREWELL ON THE BASIS OF THE COGNOPRAMGATIVE APPROACH

Annotation. Today's modern pragmalinguistic researchers pay great attention to speech acts and speech genres. As a result, there was a need to emphasize fatika and its manifestations. Ending phatic communication - a speech act of farewell - is a special communicative level of speech etiquette. Farewell, which is one of the complex, but interesting and effective elements of the speech act, is significant for its purely pragmatic nature. In modern linguistic studies in the anthropocentric direction, special attention is paid to illuminating new approaches to issues such as dialogic discourse, phatic communication and the phatic function of language, greetings, farewells. Fatika is a kind of saying goodbye, which is essentially traditional (ethical) and serves to end the conversation and end the discourse. According to the Uzbek conversation etiquette, the act of farewell expresses good wishes to each other, wishes for re-communication, based on the conversation between the subject and the object of the discourse, that is, the content of the conversation. This article aims to analyze the theoretical and practical foundations of ending the dialogue (farewell) in Obek phatic communication, and rational typological, comparative-comparative, and substantive methods were used. As a result, issues such as ethnocultural aspects of farewell etiquette, communication strategy and tactics in the "Farewell" situation were analyzed. The analysis of dialogue completion based on the cognopragmatic approach was presented using examples from Uzbek literature. An attempt was made to substantiate the formation of a situational pragmatic system of speech communication, to reveal the stages of this system and the interrelationships of its components.

Key words: speech genre, discourse, phatic communication, dialogue completion, speech etiquette, verbal means, non-verbal means, compliment, ethnocultural aspects.

KIRISH. Dunyo tilshunosligida pragmalingvistikaning tilshunoslik turkum fanlar orasidagi o‘rni, pragmatik sistema tushunchasining o‘zi, uning tarkibiy qismlari orasidagi munosabat, pragmatik sistemaning assosiativ (paradigmatik) sistemalar bilan murakkab aloqadorliklarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, til imkoniyatlarining amaliy foydalanilishi, lisoniy birliklarning

reallashuvi, ya'ni nutqda qo'llanishi va ma'no-vazifalarini yoritib berishga e'tibor kuchaymoqda. Mazkur jarayon dunyo uzra texnologiyaning rivojlanishi sababli insoniyat omili muhim ahamiyat kasb etayotgani, nutq madaniyati, muloqot qilish samaradorligi, tilga ma'naviyatimizni yuksaltiruvchi manbalardan biri sifatida qarash kuchayib borayotgani bilan izohlanadi. O'zbek tilshunosligida ham bu borada dadil qadamlar tashlangan va yana yangi tadqiqotlar amalga oshirilyapti. O'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan hamda shaxsiy munosabatlarni amalga oshiradigan fatik nutq turi sifatida muloqotni yakunlash (xayrlashish) ning funksiyalarini aniqlash, bu boradagi pragmalingvistik va lingvokulturologik yondashuvlarni ilmiy jihatdan izohlash, xayrlashuvning o'rni va xususiyatlarini dalillash kabilar oldimizda turgan vazifadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. So'nggi yillarda til hodisalarini o'rganishda kommunikativ-pragmatik yondashuv muhim o'rinni egalladi, bu izlanishlar kommunikativ vaziyatning xususiyatlarini, so'zlovchining ijtimoiy-psixologik munosabatlarini hisobga olishga imkon beradi. Tilshunoslarning e'tibori, eng avvalo, til va nutq faoliyatining yaratuvchisi sifatida insonga qaratiladi. Tadqiqotlar kommunikativ tilshunoslikning tarkibiy qismlariga, ya'ni so'zlovchining pozitsiyasiga, uning kommunikativ niyatlariga, muloqot paytida qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish yo'llariga, ma'lum kommunikativ bosqichlarga bo'lgan munosabatga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Nutq harakatlarini rivojlantirish, dialogik ta'sirning tuzilmalari, birliklari, taktikasi va strategiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan ishlar orasida jahon tilshunosligida V.G. Admoni, E.V. Voxrisheva, I.P. Susova, A.G. Pospelova, L.P. Chaxoyan, O.S. Issers, G.P. Grice, T. Van Deyck, J. Ostin, J. Searle kabi olimlarning izlanishlarini ta'kidlash zarur. Muloqotchilarning nutq akti doirasidagi xatti-harakati ko'p jihatdan odob-axloq qoidalari va, xususan, nutq odobi bilan belgilanadi. Nutqiy odob-axloq madaniyatning elementi sifatida ko'plab mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan ko'rib chiqiladi. A.A. Akishina, N.I. Formanovskaya, L.P. Stupin, K.S. Ignatiev, A.L. Toporkov, A.G. Balakay, N.L. Sokolova, P.A. Gazizov, I. Verlen, E. Rauch va boshqa olimlarning tadqiqotlari bunga misodir.

Maqolada matn parchalarini bevosita kuzatish va tavsiflash usuli, nutq odob-axloqi birliklarini semantik, pragmatik tahlili usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatda ma'lum bir tarixiy bosqichda sodir bo'lgan o'zgarishlarni aks ettiradi. Til doimiy o'zgarish va shakllanishda bo'lgan tarixiy hodisadir. Ushbu o'zgarishlarning tashuvchisi va muallifi shaxsdir. U nutq faoliyatida ham o'z ijodi natijalaridan foydalanuvchi - tildir. Zamonaviy lingvistik nazariyalarning diqqat markazida murojaat qiluvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sirning xarakterini aks ettiruvchi nutq aloqasi birliklari joylashgan.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar lisoniy birliklarni qo'llash nafaqat nutq sharoiti, vositasi va hokazo kabi ijtimoiy hodisalar bilan, balki so'zlovchi va tinglovchi shaxsiyati hamda ruhiyati, har bir xalq, millat, hatto, ijtimoiy guruhning o'ziga xos ─ shu guruh yoki toifa uchun odat tusiga kirgan qator urf-odat, rasm-rusum, ya'ni etnografik tomonlar bilan ham aloqador ekanligini ko'rsatdi. [3,10064] Chunonchi, biz birovga salom berar ekanmiz, odob nuqtayi nazaridan qo'lni ko'krakka qo'yib, boshni sal egib, ta'zimga yaqin harakat qilib salomlashamiz. Bu – o'zbek urf-odati. Shunda nolisoniy vosita bilan birga, albatta, "Assalomu alaykum!" lisoniy birligi ham ishlatilishi zarur.

Ma'lumki, boshqa shaxslar bilan to'qnashish vaziyati salomlashish janrini tug'diradi, axloq qoidalarining buzilishi – uzr (kechirim so'rash) janrini; boshqa

kommunikantning moddiy yoki ma’naviy yaxshiliklari – minnatdorchilik janrini; begonalarning g‘am-kulfati, o‘limi bilan duch kelib qolish – hamdardlik nutqiy janrini; o‘ziga xos muvaffaqiyat bilan to‘qnashish – tabrik janrini; keyingi aloqani nazarda tutib, notanish adresat bilan suhbat boshlash istagi – tanishuv janrini yuzaga keltiradi [1,107]. Nutqiy janrlar uchun tipik xususiyatlar: kommunikativ vaziyat, ekspressiv intonatsiya, hajm (nutqiy yaxlitlikning taxminiy uzunligi) hisoblanadi. So‘nggi tadqiqotlarda nutqiy janrlarning matniy, stilistik, psixolingvistik va madaniy jihatlari kabi bir qator qirralari tahlil etildi. Nutqiy janrlarni pragmatik o‘rganishga adresat va adresant faktorlarining teng darajada tan olinishi xosdir; asosiy prinsip sifatida aniq vaziyat sharoitlariga mos o‘rnatilgan dialog, ijtimoiy hamkorlik oldinga suriladi.

Biz tadqiqotlarimizda fatikani muloqotni boshlash, muloqotni saqlab qolish va muloqotni yakunlash turlariga ajratgan edik. [2, 1199] Fatikaning muloqotni boshlash turi salomlashishni ifodalasa, muloqotda bo‘lish turi kommunikantlarning o‘zaro muloqot-suhbatni saqlash, muloqot jarayonidagi urfiy ravishda noqulay, madaniyatsizlik sanaladigan jimlikni o‘rtadan ko‘tarish, vaqt o‘tkazish bilan birga suhbatdoshlarning o‘zi va bir-biriga munosabati haqida ma’lumot beruvchi, muloqot maqsadi mavzusiga aloqador bo‘lmagan nutq-suhbati tushuniladi. Bunda V.Fedotova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan sanab o‘tilgan fatik nutqiy janrlarning barchasi ishtirok etadi. Fatikaning muloqotni yakunlash turi ham mohiyatan urfiy-odatiy (etik) bo‘lib, muloqotni yakunlash, diskursning oxirlashiga xizmat qiladi. O‘zbek suhbat odobi bo‘yicha u, albatta, suhbatdoshlarning suhbatdan, muloqotdan mamnunligi haqida axborotni o‘z ichiga olib, bir-birlariga ezgu tilaklarini, qayta muloqotga tilakdoshliklarini ham ifodalaydi. Buning o‘zbek nutqiy muloqotida badiiy shaklda o‘z aksini topgan namunalari juda ham ko‘pdir. Hatto shunday asarlar ham borki, fatik muloqot uning mohiyatini tashkil etadi va muallifning g‘oyasini asar mazmuniga aloqador bo‘lgan fatik suhbat orqali kitobxonga ochib berishga xizmat qiladi. G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida “o‘g‘rigina bola” bilan “uyqusi qochgan buvi” orasidagi ancha uzun nutqiy muloqot (mediadiskurs) shunday muloqotni saqlashning – ikki mutlaqo tasodifiy shaxs (o‘g‘ri va uy egasi) orasida do‘stona, hatto ular uchun dilkash suhbatning yaxshigina namunasi bo‘la oladi. Diskurs-suhbat shunchalik dilkashki, fatik muloqot shunday boshlanadi:

– O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoyna hoy biror tiriklikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydimi, – debdilar.

O‘g‘ri tomdan turib:

– Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo‘lini to‘saverasizmi? – debdi .

Suhbat quyidagicha yakunlanadi:

– Voy o‘lay, qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. To‘xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqe, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g‘ashiga tegdik shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to‘rttagina yetim qolib turibdi. Eh-ha, bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o‘g‘rigina bolam.

– Yo‘q?, yo‘g‘-ye, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo‘ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O‘sha yetimlarning o‘ziga buyursin. To‘ylarida o‘ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi, buvi, men ketaman, tog‘ tomon ham yorishib qoldi.

– Xayr, o‘g‘rigina bolam, kelib tur.

– Xo‘p, ona, xo‘p... [4,64]

Bosh mavzusiga mutlaqo aloqador emas, lekin bema'ni, quruq, hech qanday axborotsiz ham emas – u kitobxonga o‘sha davrdagi holat, suhbatdoshlarning moddiy-iqtisodiy ahvoli haqida ancha ma'lumot beradi. Asardan maqsad ham shu fatik muloqotda o‘z aksini topgan ijtimoiy holatni kitobxonga yetkazishdir. Bunda san'atkor muallif kinoyaviy – qizim senga aytaman, kelinim sen eshit usulini qo‘llaydi.

Nutqiy janrlarni pragmatik o‘rganishga adresat va adresant faktorlarining teng darajada tan olinishi xosdir; asosiy prinsip sifatida aniq vaziyat sharoitlariga mos o‘rnatilgan dialog, ijtimoiy hamkorlik oldinga suriladi.

Har xil vaziyatlarda suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish, uni istalgan maqsadda davom ettirish va yakunlash borasidagi turli qoidalar jamlanmasi esa nutqiy etiket (nutqiy odob) hisoblanadi.

Xayrlashish vaziyati kommunikatorlar jo‘nab ketayotgan vaqtda paydo bo‘ladi va o‘zaro yaxshi istaklar tilashib ajrashishni ifodalaydi. Xayrlashish faktorlaridan foydalanish kommunikativ harakat tugaganligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, matnlarda xayrlashish vaziyati kompozitsion ifodani topishi mumkin. *[5, 12]* Ko‘pincha xayrlashuv matn, bob yoki butun she'r oxirida joylashadi va shu bilan bir syujet chizig‘ining oxiri va boshqasining boshlanishini belgilaydi. Mazkur nutqiy akt salomlashish va minnatdorchilik holatlari kabi asosiy o‘rinni egallaydi.

“Xayrlashish” guruhini birlashtirgan muloqot strategiyasi- muloqotchilar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni saqlashdir. Asosiy kommunikativ taktika-bu kontaktni qo‘llab-quvvatlash, chunki xayrlashishdan foydalanish keyingi uchrashuvda ma'lum bir uyg‘unlikda aloqa o‘rnatish imkoniyatini beradi. Qadim zamonlardan xayrlashishdan foydalanish, salomlashish kabi qat'iy tartibga solingan.

Xayrlashish vaziyatida ishlatiladigan noverbal vositalarga kelsak, ular salomlashish holatidagi kabi turli-tuman emas. Aytishimiz mumkinki, ular faqat ta'zim va o‘pish shakllari bilan cheklangan: Odatan muloqotni yakunlash vazifasi mezbon (katta yoshli suhbatdosh) – yuqori martabali shaxs zimmasiga tushadi va “Xayr, omon bo‘ling! Suhbatdan juda mamnun bo‘ldim. Xudo yana uchrashtirsin!”, “Kelib turing! Uzilib ketmang!” kabi odatiy iboralardan tuziladi. Muloqotni yakunlash tashabbusi mehmondan boshlanadi, agar yoshi kichik, darjasi/martabasi quyi shaxsdan chiqadigan bo‘lsa, u, albatta, uzr aytib, mezbonni muloqotni yakunlashga undaydi, suhbatni yakunlashni so‘raydi va, albatta, suhbatdan mamnunligini ta'kidlab mezbonni bezovta qilgani/vaqtini olgani uchun uzr so‘raydi. Suhbat iliq munosabatlarda yakunlanganining juda chiroyli namunasini “Alisher Navoiy” dramasining Mo‘min Mirzoning Alisher Navoiy bilan suhbatni yakunlash lavhasida ko‘rish mumkin:

Mo‘min: Ustoz, men doim yoningizda bo‘lishni istar edim. Ammo vaziyat hoziroq jo‘nab ketishimni taqozo qiladi. Men Sizni, xushxabar bilan Hirotda kutaman. Menga ruxsat.

Navoiy: Oq yo‘l, shahzoda . [7, 146]

I.Sultonning yana bir asari “Imon” dan olingan quyidagi parchaga ham diqqat qarataylik:

Barot: Sizga xayr! Salomat bo‘l!

Niyoz: Ko‘p rahmat! [7, 282]

Muloqot o‘zini suhbatdoshlardan baland tutadigan dimog‘dor, takabbur shaxs va uning tobelari orasida bo‘lsa, o‘ziga xos shakl va vositalarga ega bo‘ladi. Chunonchi, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani ibtidosining bayoniga e'tibor qarataylik. Firqa laqabini olgan va qishloq sovetiga rais bo‘lib tayinlangan Botir firqaning ilk muloqotining yakuni:

– Unda, sizlarga topshiriq: boringlar, meni kim ekanimni bilib kelinglar!

Qo'shchi shunday deya, supadan tushdi. Ko'chaga ravona bo'ldi. [6, 14]

Muloqot araz-janjal, adovat va nafrat kabi salbiy munosabat ruhida bo'lsa, suhbatdoshlarning saviyasiga ko'ra u boshqacha shakllar va vositalarda bo'lishi mumkin. Chunonchi, mazkur dramada Alisher Navoiyning podshoh bilan xayrlashishi quyidagicha bayon etiladi:

Navoiy: Men ketdim!

Husayn: Qayoqqa?

Navoiy: Ijodimga. Xalqimga! (Keta boshlaydi).

Husayn: Alisher, qayting! Huzurimda qoling! [7, 157]

Navoiy: Xatolarni ko'paytirish, gunohlarni orttirish uchunmi? Xayr, shahanshoh!

Muloqotning mazmuni, kommunikantlarning bir-biriga munosabati, nutq sharoiti va qator boshqa omillar ta'sirida xayrlashish boshqa ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Xayrlashish vaziyatida yuqorida aytib o'tilgan kommunikativ harakatlarga qo'shimcha ravishda, biz bunday kommunikativ harakatni ajralishni istamaslikning ifodasi, minnatdorchilik va iltifotga ishonch sifatida qayd etishimiz mumkin:

Xayrlashish nutqiy akti ikkita kichik guruhni tashkil qiladi: 1) qo'shimcha ma'noga ega bo'lmagan va faqat xayrlashish semasini o'z ichiga oluvchi xayrlashish; 2) xayrlashish semasi bilan bir qatorda tilak semasini o'z ichiga oluvchi xayrlashish. Ushbu aktni birlashtiradigan kommunikativ strategiyaning bosh maqsadi kommunikantlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni saqlashdir. Asosiy aloqa taktikasi-bu kontaktni qo'llab-quvvatlash, chunki xayrlashish aktidan foydalanish keyingi uchrashuvda do'stona ohangda aloqa qilish imkoniyatini beradi.

XULOSA. Asosiy muloqot harakatlari xayrlashish vaziyatining ikki bosqichiga to'g'ri keladi - ketish uchun ruxsat so'rash yoki oq yo'l tilash istagi. Bundan tashqari, yo'lga chiqayotgan kishiga yoki qolayotgan kishiga minnatdorchilik bildirish, ajralishni istamasligini bildirish, minnatdorchilik va iltifotni ta'minlash kabi kommunikativ harakatlarni ajratish mumkin. Minnatdorchilikning ifodasi sovg'a yoki kuzatib qo'yish bo'lishi mumkin. ayrlashish aktlari salomlashish kabi kommunikativ aktda ishlatilganligi sababli, ularning barchasi, istisnosiz, shaxsiylashtirish semalariga ega. "Xayrlashish" nutqiy akti semasi kontaktning tugashi yoki uzilishi va shu bilan birga aloqani qayta tiklash, ma'lum bir sozlanishda, ya'ni xayrixohlikda aloqa o'rnatish imkoniyatini ta'minlash bilan bog'liq. Bu muloyim murojaat shakllaridan foydalanishda o'z ifodasini topadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hamroyeva, N. (2024). The Role Communicative Strategies in the Process of Interpersonal Communication. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 45(45).
2. NIZAMIDDINOVNA, H. N. (2024). The Need for Interactive and Perceptive Sides of Communication in Speech Activity. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(5), 1199-1202.
3. Nizomiddinovna, K. N., Shodiyevna, N. S., Alimovna, K. G., Shonazarovna, E. D., & Turakulovich, J. U. (2022). PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE TYPES OF FATIK COMMUNICATION AND ABOUT COMPLIMENTS. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).
4. G'ulom G'. "Mening o'g'rigina bolam". – T.: "Yangi asr avlodi", 2019. – B.: 128.
5. Бирр-Цуркан Л. Ф. Единицы речевого этикета и их функционирование в средневерхненемецком языке : Автореферат дис. – Санкт-Петербургский государственный университет, 2007.

6. Мурод Тоғай. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. – Тошкент, 2001. – Б. 14.
7. Султон И. Асарлар. Тўрт томлик. 1-том. Драматургия. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 88.